



## O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Eshqulova Hilola Shoyimqul qizi<sup>1</sup>**

o'qituvchi

**Otabekov Javdod Nurulla o'g'li<sup>2</sup>**

o'qituvchi

otabekovjavadod@gmail.com

**Anorqulov G'anisher Alisher o'g'li<sup>3</sup>**

o'qituvchi

**Sharofiddinov Nozimjon O'ktam o'g'li<sup>4</sup>**

talaba

1-2-3-4 Guliston davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7153191>

### ARTICLE INFO

Received: 30<sup>th</sup> September 2022

Accepted: 03<sup>rd</sup> October 2022

Online: 06<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

barqaror rivojlanish, kambag'allik, qashshoqlik, yashash minimumi, iste'mol savatchasi, aholi daromadlari, Djini koeffitsienti, Lorents egri chizig'i, inson kapitali, kambag'allik tuzog'i.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti turli moliyaviy- iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy inqirozlarning kuchayishi, mamlakatlar o'rtasida turli savdo urushlarining avj olishi natijasida dunyo mamlakatlari o'rtasidagi ijtimoiy- iqtisodiy aloqalarning cheklanishi kabi jarayonlar bilan tavsiflanadi. Buning natijasida esa, dunyoning ko'pgina milliy iqtisodiyotlarda YaIM o'sishining sekinlashuvi, real daromadlarning pasayishi, ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi va qashshoqlikning ortishi kuzatilmoqda. Kambag'allik va qashshoqlik muammosi dunyo miqyosidagi global muammolardan biri sanaladi, shu sababdan BMT Bosh Assambleyasining 2014 yil avgust oyida

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada bashariyat oldidagi eng katta muammolardan biri bo'lgan kambag'allikka qarshi kurashishning o'ziga xos jihatlari va dunyo mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar tahlil qilingan.*

o'tkazilgan sessiyasida mazkur muammo 2030 yilgacha bo'lgan muddatda sayyoramizni barqaror rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [9]. Mazkur sessiyada 17 ta maqsad belgilab olingan bo'lsa, ularning orasida eng birinchisi bu kambag'allik va qashshoqlikka barham berish hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish borasida milliy hukumatlardan quyidagi vazifalar ijrosiga alohida e'tibor qaratish so'raladi: 2030 yilga borib, milliy ta'rif va talqinlarga ko'ra qashshoqlikning turli ko'rinishlarida kun kechirayotgan barcha yoshdagi erkaklar, ayollar va bolalar ulushini kamida yarmiga qisqartirish; 2030 yilgacha bo'lgan muddatda barcha erkak va ayollar,



ayniqsa, kam ta'minlangan va nochor aholining iqtisodiy resurslarga, shuningdek, asosiy xizmatlardan foydalanish, er va boshqa mulkchilik shakllariga egalik qilishva ularni tasarruf etish, meros qilib olingan mulk, tabiiy resurslar, tegishli yangi texnologiyalar va moliyaviy xizmatlar, shu jumladan mikromoliyalash bo'yicha teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlash;

2030 yilga kelib, kambag'al va nochor insonlarning turli xil salbiy ta'sirlarga nisbatan barqarorligini oshirish, iqlim o'zgarishi va boshqa iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xatarlar, tabiiy ofatlardan himoyalanganligini kuchaytirish[10]



jadval

***Kambag'allik tushunchasiga berilgan ta'riflarni tizimlashtirish[2]***

| <b>Muallif</b>   | <b>Ta'rif</b>  | <b>Izoh</b>  |
|--|--|--|
| <b><i>Ijtimoiy- darvinistik yo'nalish vakillari</i></b>                                |  |  |
| A.Smit   | Kambag'allik- jamiyatdagi me'yorlar nisbati va ularga amal qilish  | Kambag'allik iqtisodiyot uchun   |
|  | imkoniyatlaridir   | ijobiy hodisa hisoblanadi, uning mavjudligi iqtisodiyotni rag'batlantiradi. Kambag'allikni qisqartirish uchun davlat aralashuvi talab qilinmaydi |
| T. Maltus  | Kambag'allik - ierarxik tashkil topgan jamiyat uchun xos bo'lgan tabiiy hodisadir  |  |
| G.Spenser  | Kambag'allik –bu shaxsning o'z hatti-harakatlarining etarlicha emasligi oqibatidir   |  |
| J. Prudon  | Kambag'allik- insoniyatning ajralmas jihatidir   |  |
| <b><i>Egalitar (Ijtimoiy- tenglik) yo'nalish vakillari</i></b>                         |  |  |
| E.Reklyu   | Kambag'allik- faqatgina asosiy ehtiyojlarni qondira olish imkoniyatidir  | Kambag'allik hodisasiga salbiy munosabatda bo'lish, unga qarshi kurashish  |
| K.Marks  | Kambag'allik- mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilish shakli va chorasidir   |  |
| <b><i>XIX asr oxirlarida Angliyada kambag'allik borasidagi qarashlar</i></b>           |  |  |
| Ch.But   | Kambag'allik - mamlakatda qaror topgan oddiy hayot me'yorlariga muvofiq ravishda shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarining yo'qligidir   | Kambag'allikning mohiyati asosiy ehtiyojlarni qondira olmaslikda namoyon bo'ladi   |
| <b><i>XX asrda xorijlik olimlarning asarlarida kambag'allik haqidagi qarashlar</i></b> |  |  |
| P.Taunsend   | Kambag'allik - bu jamiyatda keng qabul qilingan yoki jamiyat uchun oddiy bo'lgan turmushshart-sharoitlari, ovqatlanish me'yorlari, jamiyat hayotida ishtirok etish uchun zarur bo'lgan resurslarning etishmasligidir | Nafaqat past daromadlar va asosiy ehtiyojlarni qondirish, balki shaxsning jamiyat hayotida ishtirok etish darajasini ham hisobga olgan holda,    |
| A.Sen  | Kambag'allik - bu kambag'allikni aniqlash borasida odatiy me'yor sifatida xizmat qiluvchi past daromadning mavjudligi emas, balki asosiy imkoniyatlarning yo'qligidir  |  |



|  |  |  |
|--|--|--|
| BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi, 1984 yil 19 dekabr                           | Kambag'allar - bu shunday shaxslar, oilalar, odamlar guruhlariki, ular egalik qiluvchi resurslar ularga o'zlari istiqomat qiluvchi mamlakatlarda maqbul turmushkechirish imkoniyatini bermaydi | kambag'allik mohiyatini chuqurroq ochib berish   |
| <b><i>XX asrda MDH olimlarining asarlarida kambag'allik borasidagi qarashlar</i></b> |  |  |
| L.S.Rjanitso'na  | Kambag'allik - bu shunday holatki, unga ko'ra jamiyat a'zolari jamiyatda tarkib topgan qonunlar asosida turmush kechirsalarda, minimal iste'mol standartlariga ega bo'lmaydilar                | Kambag'allik tushunchasining muayyan iste'mol minimumi, aynan asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarining yo'qligi bilan cheklanib qolganligi sharoitida, xorijiy mamlakatlarda kambag'allik borasida yanada yuqori standartlarga o'tilgan |
| E.E.Rumyantseva  | Kambag'allik - bu shunday holatki, u shaxslarga moddiy mablag'larning etishmasligi tufayli o'zlarining asosiy ehtiyojlarini qondirish imkonini bermaydi  |  |
| Zamonaviy iqtisodiy lug'at   | Kambag'allik - bu oddiy turmushkechirish uchun shaxs, oila, mintaqa va mamlakatda resurslarning favqulodda etishmasligidir   |  |
| Ijtimoiy entsiklopediya  | Kambag'allik - bu individlarning mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun moddiy imkoniyatlarining etishmasligi va ularning o'rnatilgan yashash  |  |

Xorijlik olimlar tomonidan kambag'allik tushunchasini aniqlashtirish borasida taklif etilayotgan ta'riflar va yondashuvlarni quyidagi jadvalda tizimlashtirgan holda, aks ettirishga harakat qildik (1-jadval).

Kambag'allik darajasining miqdoriy hisob-kitoblari to'g'risida dastlab, ingliz olimlari Charlz But va Sib Rauntrilar fikr yuritishgan va ular tomonidan "kambag'allik chegarasi" tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan [5].

Kambag'allik chegarasi insonning faqat eng muhimbo'lgan birlamchi oziq-ovqat, kiyim-kechaklarni sotib olish va istiqomat qilish uchun etarli bo'lgan daromadlarning minimal miqdorini ifoda etadi. Jamiyat

rivojlanishi bilan hayot uchun zarur buyum va xizmatlar majmui kengaya borsada, lekin yuqorida tilga olib o'tilgan usul o'z mohiyatini yo'qotganicha yo'q. Biror bir shaxs yoki oilani kambag'allar toifasiga kiritish ularning nimaga egalik qilishlariga ko'p jihatdan bog'liqdir. Mazkur usuldan foydalangan holda mutloq kambag'allik darajasini o'lchashimiz mumkin.

Nisbiy kambag'allik deyilganda biror bir shaxs yoki oilaning jamiyatda qabul qilingan muayyan turmush darajasini ta'min eta olmaslik holati tushuniladi.

So'nggi yillarda kambag'allikni aniqlashda respondentlarning o'zlarini o'zlari baholashlariga asoslangan sub'ektiv



usuldan keng foydalanilmoqda. Bunda respondentlardan “ siz o‘zingizni kambag‘al deb hisoblaysizmi yoki yo‘q”, degan savolga javob berish so‘raladi. Bunday yondashuvning afzalligi shundaki, u ijtimoiy muammo sifatida kambag‘allikni baholashga va uni hal etish borasida zaruriy chora- tadbirlar ko‘rilishiga imkoniyat beradi. Shu bilan bir qatorda, uning o‘ziga xos kamchilik tomoni ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, ko‘pchilik respondentlar o‘zlarini kambag‘al sifatida e‘tirof etishdan uyaladilar [3].

Kambag‘allik borasida yanada aniqroq ta‘rif Jahon Banki tomonidan berilgan bo‘lib, unga ko‘ra kambag‘allik chegarasi 2015 yildan boshlab, kuniga 1,25 dollardan 1,90 dollargacha ko‘tarilgan. Kuniga 3,20 dollarga kun kechirish o‘rtacha daromadga ega bo‘lgan mamlakatlardagi kambag‘allik chegarasini

aks ettirsa, kuniga 5,50 dollarga kun kechirish o‘rtachadan yuqori daromadga ega bo‘lgan mamlakatlarda kambag‘allik chegarasini aniqlashda asosiy

mezon hisoblanadi. Bu haqda, Jahon bankining har ikki yilda bir marotaba e‘lon qilinuvchi ma‘ruzasida so‘z yuritiladi. Jahon bankining bergan ma‘lumot- lariga ko‘ra, o‘zbekiston aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad hajmi bo‘yicha o‘rtacha daromadli mamlakatlar qatoriga kiradi (aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha milliy daromad mamlakatimizda 2020 yilda 1685 dollarni tashkil etdi) [6]. 2021 yil yakuni bo‘yicha mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti o‘sishi 7,4% ni tashkil etdi. Sanoat 9.5% ga, xizmatlar 20 %ga, qurilish sohasi 6 % ga qishloq xo‘jaligi 4 % ga o‘sgan. Inflyatsiya darajasi esa 10% dan past bo‘lgan.

## 2-jadval.

### Kambag‘allik darajasini o‘lchashdagi kontseptual yondashuvlarning taqqoslanma tahlili [2]

|                              | <i>Mutloq</i>  | <i>Nisbiy</i>  | <i>Sub’ektiv</i>   |
|------------------------------|--|--|--|
| <i>Yondashuvning mazmuni</i> | Mutloq kambag‘allik chegarasini belgilash yashash minimumi qiymatidan kelib chiqib belgilanadi, ushbu chegaradan past daromadli fuqarolar kambag‘al hisoblanadilar | Jamiyatda umumqabul qilingan turmushkechirish, ovqatlanish me‘yorlarini ta‘min etish borasida etarlicha resurslarga ega bo‘lmagan fuqarolar kambag‘al sanaladilar. | Mutloq kambag‘allik chegarasini belgilash yashash minimumi qiymatidan kelib chiqib belgilanadi, ushbu chegaradan past daromadli fuqarolar kambag‘al hisoblanadilar |



|                                |  |   |  |
|--------------------------------|--|---|--|
| Foydalaniluvchi ko'rsatkichlar | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kambag'allik chegarasi</li> <li>2. Qashshoqlik chegarasi</li> <li>3. Kambag'allik koeffitsienti</li> <li>4. Qashshoqlik koeffitsienti (favqulodda kambag'allik)</li> <li>5. Kamta'minlangan aholi daromadlari tanqisligi</li> <li>6. Kambag'allik chuqurligi indeksi</li> <li>7. Kambag'allikning keskinlik indeksi</li> </ol> | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. o'rtacha yoki medianali daromadning 40- 50 foizidan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushi (monetar yondashuv)</li> <li>2. Ekspert usuli yoki aholi o'rtasida so'rov o'tkazish yo'li bilan imkoniyatlar darajasini baholash.<br/>Cheklangan imkoniyatlar konsentratsiyasi darajasi kambag'allik chegarasini belgilab beradi (nomonetar yondashuv)</li> </ol> | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aholi o'rtasida so'rovlar o'tkazish natijasida kambag'allik chegarasini aks ettiruvchi minimal daromad aniqlashtiriladi (monetar yondashuv)</li> <li>2. Aholi o'rtasida ularning moddiy ahvoli to'g'risida so'rovlar o'tkazishasosida sub'ektiv kakmbag'allikning nomonetar chegarasi belgilanadi</li> </ol> |
|--------------------------------|--|---|--|

|              |   |   |   |
|--------------|---|---|---|
| Afzalliklari | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Hisob-kitoblarning nisbatan soddaligi</li> <li>2. Kambag'al aholiga yo'naltirilgan ijtimoiy ko'mak dasturlarini tartibga solishda qo'llashning samaradorligi</li> </ol> | <p>Nafaqat jismoniy ehtiyojlar, balki jamiyat hayotiga jalb qilinganlik darajasini hisobga oluvchi, kambag'allikning bir muncha yuqori standartini baholash</p> | <p>Bu kambag'allar uchun ijtimoiy yordam dasturlarini tartibga solishda muhimko'rsatkich hisoblanadi, chunki sub'ektiv kambag'allik aholi fikrining natijasi sanaladi</p> |
|--------------|---|---|---|



|               |   |  |   |
|---------------|---|--|---|
| kamchiliklari | <p>1. Kambag'al aholining fikri hisobga olinmaydi, chunki asosiy ehtiyojlar ro'yxati siyosatchilar yoki statistlar tomonidan belgilanadi</p> <p>2. Shaxsiy fuqaroning (oilaning) turmush sharoiti ushbu davlatda qabul qilingan standartlardan sezilarli farq qilishini nazarda tutadi, bu esa odamlarning ijtimoiy hayotda to'liq ishtirok etishiga imkon bermaydi</p> | <p>Ekspertli usul yoki aholi o'rtasida so'rovlar o'tkazish yo'li bilan cheklangan imkoniyatlar ro'yxatini tuzish kambag'allikning nisbiy chegarasini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi</p> | <p>1. So'rovda qatanshuvchi aholi toifalari va ko'lamini aniqlash bilan bog'liq qiyinchiliklar</p> <p>2. o'z daromadlari darajasi haqida so'ralganda inkor javobini beruvchilar sonining ko'pligi</p> |
|---------------|---|--|---|

Mamlakatning o'rta muddatli makro-iqtisodiy ko'rsatkichlari prognozining asosiy stsenariysida kelgusi besh yilda YaIMning o'rtacha o'sish sur'ati 6,5 % da bo'lishi prognoz qilingan.

Xususan, 2022 yilda YaIMning 5,77 % ga o'sishi, kelgusi yillarda esa o'sish sur'atlarining bundan yuqori bo'lishi hisob-kitob qilingan.

Hukumat oldida 2026 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdorini 2.800 dollarga etkazish va 2030 yilga borib esa 4000 dollardan oshirish va o'rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish vazifasi turibdi [11].

Kambag'allik chegarasi xalqaro tashkilotlar, milliy hokimiyat idoralari, nodavlat tashkilotlar, statistika organlari tomonidan:

> xalqaro taqqoslashlar - xalqaro shartnomalar va G'yoki xalqaro

tashkilotlarning tavsiyalaridan kelib chiquvchi majburiyatlarning mamlakatlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va baholash, shuningdek, davlatlarning xalqaro yordamga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash;

> bandlik, ishhaqi, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan investitsiya va soliq siyosati kabilar borasida milliy darajada qabul qilingan siyosiy va boshqaruv qarorlarini asoslash;

> kambag'allikni keltirib chiqaruvchi sabab va omillarni aniqlash- tirish, aholi (hududlar)ning eng zaif guruhlarini ajratib olish, ularning zaruriyatG' ehtiyojlarini aniqlash, kambag'allikka qarshi kurash-bo'yicha milliy va mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish samaradorligini baholash va tegishli tavsiyalarni asoslash borasida



chuqurlashtirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 avgustdagi "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 544- son qarori qabul qilindi. Minimal iste'mol xarajatlari ko'rsatkichidan kambag'allik mezoni (yoki chegarasi) sifatida foydalaniladi. 2022 yildan boshlab, " Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali oilani kam ta'minlangan deb e'tirof etish jarayonida qo'llaniladigan va jon boshiga to'g'ri keladigan bir oylik daromad mezoni minimal iste'mol xarajatlariga tenglashtiriladi. Har yili avgust oyiga qadar minimal iste'mol xarajatlari qiymatining prognoz parametrlari inflyatsiya kutilmalaridan kelib chiqib hisoblanadi. Minimal iste'mol xarajatlari va kambag'allik darajasi har yilgi hisobot yilida inflyatsiya darajasidan kelib chiqib, keyingi yilning 20 yanvariga qadar e'lon qilib boriladi. Minimal iste'mol xarajatlari tarkibi kamida har 5 yilda qayta ko'rib chiqiladi [12].

COVID- 19 pandemiyasi nafaqat inson hayotiga, balki uning kun kechirish manbalariga hamkatta xavf solmoqda.

Ayrim mamlakatlarda pandemiyaning tarqalishi sekinlashib, infeksiya holatlari soni kamayib borayotgan bo'lsa, boshqalarida esa COVID- 19 tez tarqalishda davom etib, zararlanishlar soni yana ko'paya boshladi. Bir so'z bilan aytganda pandemiya global javob talab qiladigan global muammo bo'lib qolmoqda. Favqulodda choralar ko'rilmasa, millionlab bolalar va kattalar uchun uzoq muddatli oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan favqulodda global tusga ega bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelishimiz tabiiydir.

Bu asosan oziq- ovqat mahsulotlarining taqchilligi bilan bog'liq bo'lib, daromadlarning tushishi, pul o'tkazmalarining qisqarishi va ma'lum bir holatlarda oziq- ovqat mahsulotlarining narxi ko'tarilib borishida namoyon bo'lmoqda. Oziq- ovqat xavfsizligi jiddiy tus olgan mamlakatlarda, bugungi kunga kelib oziq- ovqat mahsulotlarining taqchilligi bilan bir qatorda oziq- ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish inqirozi kata xavf tug'dirmoqda. o'zbekiston 2021 yilda global ochlik indeksida 5,9 ball to'plab, 135 ta dunyo mamlakatlari o'rtasida 21- o'rinda qayd etildi.

Global ochlik indeksi (GHI) har yili Concer n Wor ldwide va Welt hungerhilf e xalqaro nodavlat tashkilotlari tomonidan e'lon qilinadi. Baholashlar turli manbalardan olingan ma'lumotlarga tayangan holda, uch bosqichli jarayondan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Global ochlik indeksini hisoblashda har bir mamlakat uchun to'rtta ko'rsatkichdan foydalaniladi: to'yib ovqatlanmaslik: aholining to'yib ovqatlanmaydigan ulushi (ya'ni oziq- ovqat kaloriyasining pastligi holatida); bolalarning to'yib ovqatlanmasligi: to'yib ovqatlanmaydigan besh yoshgacha bo'lgan bolalar nisbati (ya'ni, to'yib ovqatlanmaslik natijasida ular bo'yining tana vazniga mos kelmasligi); Bolalar o'sishidagi kechikishlar: o'sishdan kechikayotgan besh yoshgacha bo'lgan bolalarning nisbati (ya'ni, bolalarning yoshiga nisbatan o'sishdan kech qolayotganligi, ularning surunkali ravishda to'yib ovqatlanmasliklarini ko'rsatadi); bolalar o'limi: etarlicha ovqatlanmaslik va nosog'lom muhit kabi omillarning natijasi sifatida besh yoshgacha bo'lgan bolalarning o'limdarajasi.



Tadqiqotlar davomida global ko'lamda so'nggi o'n yillikda kuzatilgan eng yuqori ko'rsatkichga tayanilgan holda, 100 ballik shkala bo'yicha to'rttala ko'rsatkichning har biri baholanadi. Agar mamlakat 0 va 10 ball oralig'ida ball to'plagan bo'lsa, bu mamlakatda " ochlikning past darajasi" kuzatiladi. To'plangan ballar 10 va 19,9 ball atrofida bo'lsa bu " o'rtacha ochlik", 20 balldan 34,9 ballgacha bo'lsa – " ochlikning yuqori", 35 balldan 49,9 ballgacha bo'lsa " ochlikning kritik" darajasini ko'rsatadi. To'plangan ballar 50 va undan yuqori bo'lsa, bu mamlakatda ochlik darajasi " halokatli" ko'lamda ekanligidan dalolat beradi.

BMT hisobotida keltirilishicha, COVID-19 pandemiyasi natijasida surunkali ochlik dan aziyat chekayotganlar soni 132 million kishiga ko'payishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, oziq - ovqatinqirozlari bo'yicha global ma'ruzada ta'kidlanishicha, bugungi kunda dunyoda 850 milliondan oshiq insonlar to'yib ovqatlanish baxtidan mosuvo bo'lgani holda, yana 700 milliondan oshiqroq insonlar oziq- ovqat xavfsizligi bilan bog'liq xatarga duch kelmoqda, ustiga- ustak dunyoda 1,3 milliard inson kerakli darajada oziq- ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanmagan.

Jahon bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyaning iqtisodiy oqibatlarini natijasida 100 millionga yaqin kishi qashshoqlik domiga tushib qolishi mumkin. Ishsizlikning muttasil o'sishi, daromad manbalarining yo'qotilishi va oziq- ovqat mahsulotlariga narxning o'sishi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham iste'molchilarni oziq- ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashni xavf ostiga qo'yadi va oziq- ovqat xavfsizligini ta'minlashborasida jiddiy xatarlarni keltirib chiqaradi. Bundan

tashqari, pandemiya milliy iqtisodiyotlarni chuqur retsessiyaga olib kelishi bois, dunyo mamlakatlari pandemiyaning oziq- ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimlariga salbiy ta'sirini yumshatish borasida jiddiy chora- tadbirlarni amalga oshirishlari talab etiladi.

Xalqaro oziq- ovqat tashkiloti (FAO) mutaxassislari COVID- 19 tu- fayli insonlar ochlik domiga tushib qolishlariga sabab bo'luvchi uchta omilni ajratib ko'rsatishadi:

- Bandlik darajasining pasayishi va daromadlarning qisqarishi fuqarolarning oziq- ovqat mahsulotlariga sarflashlari mumkin bo'lgan xarajatlarning qisqarishini anglatadi. Migrantlarning pul o'tkazmalari- ning qisqarishi ham mazkur muammoni yanada chigallashtiradi. Shu bilan birga, dunyo mamlakatlari orasida siyosiy, irqiy, iqtisodiy, millatlararo ziddiyatlarning kuchayishi oziq- ovqat mahsulotlari narxining ko'tarilishiga va taqchilligiga sabab bo'lmoqda.

- Pandemiya oqibatida yuzaga kelgan turli majburiy to'siqlar va uzilishlar va sog'liqni saqlash bilan bog'liq pandemiyaga qarshi chora- tad- birlar ham oziq- ovqat ishlab chiqarish va oziq- ovqat ta'minoti borasida jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

- Davlat daromadlarining keskin pasayishi turli tavsifga ega bo'lgan ijtimoiy himoya chora- tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashni mushkul holatga solib qo'yadi va davlatning o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondira olmasligini anglatadi.

Kambag'allikka qarshi kurashishbo'yicha Evropa tarmog'i (EAPN) insonning kambag'allik holatiga tushib xolishxavfini kuchaytiruvchi bir qator omillarni ajratib ko'rsatadi, xususan bunday omillar sirasiga quyidagilar kiritiladi: ishsizlik,



savodxonlik darajasining pastligi, nogironlik, inson salomatligining yomonligi, u yoki bu kam sonli etnik guruhga mansublik, uzoq yoki qashshoq hududlarda istiqomat qilishva shu kabilar. Bizning fikrimizcha, bu o'rinda eng katta e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihat - bu insonlarning iqtisodiy tafakkur darajasidir. Insonlarda o'z hayotlarini yaxshiroq qilishva rivojlantirishistagi bo'lishi kerak. o'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurashishdasturlarini ishlab chiqishda Xitoy tajribasidan foydalanishijobiy samara beradi. Xitoyda kambag'allikka qarshi kurashishchora- tadbirlari quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya chora- tadbirlarining aniq manzilga yo'naltirilganligi;
2. Oziq- ovqat xavfsizligini ta'minlash, mahalliy bozorlarni sifatli oziq- ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash borasida ilmiy- tadqiqot ishlarining har jihatdan qo'llab- quvvatlanishi;
3. Kambag'allikka qarshi kurashishda har bir hududning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib yondashish;
4. Xitoyda amalga oshiriluvchi ijtimoiy siyosat aholi turli qatlamlarining manfaatlarini qamrab olishga qaratilgan. Xususan, keksa yoshdagi aholi uchun tegishli ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish maqsad qilib olingan bo'lsa, mehnatga layoqatli va ayniqsa yoshlarning mehnat salohiyatlarini ro'yobga chiqarish Xitoyda kambag'allikka qarshi kurashish siyosatining asosini tashkil etadi, bunda asosiy e'tibor yoshlarni kasb- hunarga o'rgatishga qaratiladi, ya'ni " Insonlarga qarmoq berib, ularga baliq tutishni o'rgatishkerak", degan Konfutsiy ta'limotiga qat'iy amal qilinadi;

5. Qishloq hududlarida kambag'allikni kamaytirish maqsadida qishloq hududlariga sanoat ishlab chiqarishini olib kirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish;

6. Hududlarni ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etishamaliyoti- dan keng foydalanish;

7. Ijtimoiy dasturlarga yo'naltirilgan har qanday mablag'ning sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish.

Kambag'allik to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, kambag'allik va qashshoqlikni tavsiflashda " kambag'allik tuzog'i" deb ataluvchi mexanizmmavjud ekanligini aytib o'tishimiz lozim. Bir qator " kambag'allik tuzoqlari" mavjudki, inson ulardan istalgan birining domiga tushib qolishi hech gap emas. Quyida ulardan ba'zi birlarini keltirib o'tamiz:

1. Qashshoq mamlakatda tug'ilish va istiqomat qilish. Iqtisodiy rivojlanishning past darajasi o'z navbatida ta'lim sifatining yomonlashi- shi, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatining talab darajasida bo'lmasligini keltirib chiqaradi. Bunday vaziyat ish haqi darajasining pastligi va ishsizlikning yuqori ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Bunday holatda tuzoqdan chiqib ketishning yagona yo'li - bu mehnat migratsiyasi hisoblanadi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumot- lariga ko'ra, o'zbekistonda ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan 9,3 foizni tashkil etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ishsiz va ishga joylashish umidida bo'lganlar soni 1,3 million kishini tashkil etadi. Bandlik va mehnat munosabatlar vazirligidan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlar



o'rtasida ishsizlik darajasining yuqoriligi katta tashvish uyg'otadi, jumladan 20- 30 yoshgacha bo'lganlar orasidagi 15,1 foizni, 15- 25 yosh oralig'ida bo'lganlar o'rtasidagi ishsizlik 16,8 foizni tashkil qilgani holda, ayollarning 12,7 foizi ish o'rniga ega emas. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimiz fuqarolarining 4,5 million nafaridan oshiqrog'i xorijda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishadi. Mehnat migrantlari mamlakatiimizga har yili o'rtacha 5 milliard dollardan ko'proq pul mablag'lari jo'natishadi, bu esa mamlakat YaIMining 10 foizdan ortig'i demakdir. Jahon banking ma'lumotlariga ko'ra, agar mehnat migrantlari tomonidan pul o'tkazmalarining keskin qisqarishi mamlakatimizda kambag'allik darajasining ikki barobarga ortishiga olib kelar ekan.

1. Qishloq hududlarida tug'ilish va istiqomat qilish. Sir emaski, shahar fuqarolar uchun sifatli turmush darajasini ta'min etadi. Qishloq aholisiga nisbatan shaharliklar ta'lim, madaniyat, tibbiy xizmatlar ko'rsatish, yuqori ishhaqiga ega bo'lishborasida bir qator avfzalliklarga egalar. Qishloq aholisining past daromadlari taraqqiyotning qator yutuqlaridan foydalanishga imkon bermaydi. o'zbekistonda YaIMning 75 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 85 foizdan oshiqrog'i shaharlar hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz bo'yicha ko'rsatilayotgan axborot- kommunikatsiya xizmatlarining 99,1 foizi, moliyaviy xizmatlarning 98,3 foizi, ta'lim xizmatlarining 80,8 foizi va tibbiy xizmatlarning 71,9 foizi shaharlar hissasiga to'g'ri keladi.

1.

Ertayoshdafarzandko'rishvako'pbolal ioilalar. Yosh ayollar bola ko'rganidan so'ng, ishga joylasha olmaganliklari bois, ko'pchilik

hollarda kambag'allik tuzog'iga tushib qoladilar. Agar kerakli darajada ta'lim olmagan bo'lsa, vaziyat yanada murakkablashadi. Etarlicha ta'lim darajasi va amaliy ish ko'nikmalariga ega bo'lmaslik oqibatida ayollar munosib ish joyi va ish haqiga ega bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. BMTning Bolalar fondi (UNISEF)ning ta'kidlashicha bolali oilalarning faqatgina 17 foizi bola parvarishi bo'yicha nafaqa oladilar, ammo nafaqa pullari kambag'allik darajasini pasaytirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi. 15 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida kambag'allik darajasi katta yoshdagilarga nisbatan 1,5 barobarga yuqoriroqdir.

2.

Kambag'aloiladadunyogakelishvayaxs hita'limolmaslik.

BMTning Bolalar fondi (UNISEF) ekspertlarining ta'kidlashicha kam ta'minlangan oilalar o'z farzandlarining etarlicha kasbiy va oliy ta'lim olishlariga imkoniyatlar yaratishborasida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladilar. Kam ta'minlangan oilalar farzandlarining hozirda bunday imkoniyatlardan mahrum bo'lishi ularning kelgusida moliyaviy imkoniyat- larining cheklanishiga olib keladi.

3.

Uzoqmuddatdavomidapasthaqto'lanu vchiishdaishlabkelish.Agar inson uzoq muddat davomida bitta faoliyat turi bilan shug'ullansa, u asta- sekinlik bilan malakava ko'nikmalarini yo'qotib boradi.

Uzoq muddat mobaynida inson bitta joyda ishlar ekan unda o'z hayotida biror bir ijobiy o'zgarishlar yasashga intilishishtiyoqi asta- sekinlik bilan so'nib boradi.

Kambag'allikka qarshi kurashishda 2019 yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan Ester Dyuflo, Abxidjit Banerdji va Maykl Kremerlarning



tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi [8]. Yuqorida nomlari tilga olib o'tilgan olimlar kambag'allikka qarshi kurashish borasida aynan amaliy tadqiqotlarni amalga oshirib, samarali natijalarni qo'lga kiritganliklari uchun yuksak mukofotga loyiq ko'rilganlar. Ester Dyuflo, Abxidjit Banerdji va Maykl Kremerlar kambag'allikka qarshi kurashish borasida tadqiqotlar olib borib quyidagi asosiy xulosalarga kelishgan:

- kambag'allik va qashshoqlikni qisqartirish uchun birgina moddiy ko'makning o'zi etarli emas, agar insonlar "kambag'allik falsafasi" dan qutulishmas ekan, qashshoqlikni qisqartirish uchun har qancha mablag'lar ajratilmasin yuqori samara bermaydi;

- kambag'allar shunchaki tekinga berilgan vositalarga nisbatan, ma'lum bir haq evaziga beriladigan vosita va jihozlardan samaraliroq foydalanadilar;

- qashshoqlikni qisqartirish uchun bevosita qashshoqlarning hayotini ilmiy asoslarda o'ta sinchkovlik bilan o'rganish talab etiladi, aynan mazkur olimlarning hatti-harakatlari bilan "Qashshoqlikka qarshi kurashish laboratoriyasi" tashkil etilgan. Bugungi kunda mazkur laboratoriyada dunyoning turli nufuzli oliy ta'lim muassasalarining 200 ga yaqin professorlari tadqiqotlar olib borishadi;

- olimlarning ta'kidlashicha, bitta mamlakat yoki hududda qashshoqlikni kamaytirish borasida amalga oshirilgan chora- tadbirlar ikkinchi bir mamlakat yoki hududda samara bermasligi mumkin, shu sababli qashshoqlikni kamaytirish borasida chora- tadbirlar dasturini ishlab chiqishda har hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashilishi lozim;

- maktab yoshidagi bolalarning savodxonligini oshirishda korreksion ta'lim dasturlaridan foydalanish katta samara

beradi, xususan mazkur dasturlar asosida Hindistonda 5 millionga yaqin bolalar o'qitilgan va katta natija bergan;

- bolalarning savodxonlik darajasini oshirishda ularning salomatligiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Xususan olimlar bitta bolaga gijjaga qarshi dori vositalari uchun yiliga atigi 3,5 dollar mablag' sarflab, yuqori natijaga erishishmumkinligini isbotlab berishgan;

- qashshoqlikka qarshi kurashishda bevosita mazkur toifadagi insonlar bilan birgalikda kurashish, ularning hatti-harakatlarni ma'lum maqsad sari yo'naltirishkerakligi haqida olimlar alohida ta'kidlashadi.

Amerikalik iqtisodchi Djeffri Saks o'zining "Kambag'allikning intihosi" deb nomlanuvchi kitobida jamiyatning kambag'allik changali-dan qutulishga imkon beruvchi kapitalning 6 ta turini ajratib ko'rsatadi, ular sirasiga quyidagilarni kiritadi: inson kapitali, ishbilarmonlik kapitali, infratuzilma, tabiiy kapital, ijtimoiy o'rnatilgan kapital va bilimlar kapitali.

Saks davlat, eng avvalo, o'zining barcha kuch va imkoniyatlarini inson kapitaliga investitsiyalar (sog'liq, ta'lim, oziq- ovqat), infratuzilma (yo'llar, kommunal xizmat ko'rsatish, ichimlik suvi, atrof- muhit muhofazasi va sanitariya), tabiiy kapital (bioxilma- xillik va ekotizimlarni saqlab qolish), ijtimoiy o'rnatilgan kapital (samarali davlat boshqaruvi, sudlov tizimi, huquqni muhofaza qilish idoralari va boshq.) va bilimlar kapitali (jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi turli soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ilmiy- tadqiqot ishlanmalarini qo'llab- quvvatlash)ga yo'naltirishi lozim, deb hisoblaydi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashishga doir chora- tadbirlar dasturini ishlab chiqishda



quyidagilarga alohida e'tibor qaratishtalab etiladi:

- Jamiyatda kambag'allikka sabab bo'luvchi korruptsiya, sifatsiz infratuzilma, ko'rsatilayotgan turli xil ijtimoiy xizmatlar sifatining pastligi, atrof- muhit va ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ekologik omillar va shu kabilarni chuqur tahlil qilish asosida kambag'allikka qarshi kurashishborasida ilmiy asoslangan dastur va rejalar ishlab chiqish;

- Kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish hisobiga qishloq hududlarini ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan rivojlantirish masalalarini hal etish;

- Yoshlarni arzon uy- joylar bilan ta'minlashda ipotekali kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ajratilayotgan ipoteka kreditlarining foiz stavkalarini hududlar kesimida qayta ko'rib chiqish;

- Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, fuqarolarning ayniqsa yoshlar o'rtasida tibbiy madaniyatni shakllantirish;

- o'zbekistonda aholi o'rtasida "namoyishkorona iste'mol" darajasi haddan tashqari yuqori va mamlakatimiz aholisining iqtisodiy xulq- atvori "kambag'allik falsafasi" ustiga qurilganligini ko'rsatadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, aholi keng qatlamlarining iqtisodiy fikrlashini o'zgartirishga qaratilgan chora- tadbirlarni amalga oshirish;

- Yoshlarning kasb- hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasini oshirish va bunda asosiy e'tiborni mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda, yoshlarni zamonaviy va istiqbolli kasb- hunar va mutaxassisliklar bo'yicha o'qitishga qaratish;

- Iqtisodiyot tarmoq va sohalari, ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab

chiqaruvchilari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini izchil yo'lga qo'yish;

- Inson kapitali sifatini yaxshilashga qaratilgan chora- tadbirlarni izchil amalga oshirish;

- Bilimlar iqtisodiyotini shakllantirishga alohida urg'u berish, ilmiy

- tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlanmalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- Jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy hayotida raqamli texnologiya- larning tobora izchil joriy etib borilishiga erishishva shu kabilar



### References:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.

<http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-25-01-2020>

Абрамова О.С. Формирование региональной политики преодоления бедности населения в современных условиях: автореферат дис. ...

Бердиев Г.И. Структура доходов домашних хозяйств Республики Узбекистан и его изменение в условиях модернизации экономики // Журнал "Экономика и предпринимательство".

Москва 2017. №8. Стр.1147- 1151. (08.00.00. № 29)

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.

<http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>

Extract from B. Seebohm Rowntree, Poverty: A Study of Town Life (1902 edition; first published 1901).

<https://www.worldbank.org>

<https://stat.uz/uz/>

<https://kun.uz/uz/>

<https://www.vedomosti.ru/economics/articles/2019/10/17/814013-kartine-bednosti>

<https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/>

[https://www.un.org/ru/development/devagenda/pdf/Russian\\_Why\\_it\\_matters\\_Goal\\_1\\_Poverty.pdf](https://www.un.org/ru/development/devagenda/pdf/Russian_Why_it_matters_Goal_1_Poverty.pdf)

[https://uza.uz/uz/post/s/zbekiston-respublikasining-orta-muddatd-rivozhlanish-istiqbollari-2022-yil-uchun-davlat-byudzheti-loyihasi-muhokama-qilindi\\_311791](https://uza.uz/uz/post/s/zbekiston-respublikasining-orta-muddatd-rivozhlanish-istiqbollari-2022-yil-uchun-davlat-byudzheti-loyihasi-muhokama-qilindi_311791)

<https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda-yangi-aholining-minimal-istimol-harajatlari-qiymatini-hisoblash-tartibi-joriy-etilmoqda>

<https://www.worldbank.org/en/publication/poverty-and-shared-prosperity>